



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



“XALQ MUSIQA IJODIYOTIDA MILLIY MUSIQANING O‘RNI”

Karimjonova Muhlisaxon Alisher qizi

Farg‘ona davlat universtiteti

Pedagogika psixalogiya va san‘atshunoslik fakulteti

Vokal va cholg‘u ijrochiligi kafedراسi talabasi

Yoshlarning jamiyatdagi o‘rni va mavqeyini oshirish – asosiy vazifamizdir.

SHavkat Mirziyoyev.

Annotatsiya : *Mazkur maqolada xalq musiqa ijodiyoti va uning jamiyat hayotidagi ahamiyati, musiqaning xalq ruhiyatini shakllantirishdagi o‘rni hamda milliy qadriyatlarning davomiyligini ta‘minlashdagi vazifalari yoritiladi. Shuningdek, xalq musiqasi janrlari, ularning badiiy-estetik xususiyatlari va xalq og‘zaki ijodiyotida tutgan o‘rni tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *Xalq musiqa ijodiyoti, milliy meros, xalq qo‘shiqlari, milliy qadriyatlar, musiqaning jamiyatdagi o‘rni, ma‘naviy me‘ros.*

Annotation: *This article discusses folk music and its importance in the life of society, the role of music in shaping the national spirit and ensuring the continuity of national values. It also analyzes the genres of folk music, their artistic and aesthetic characteristics, and their place in folk oral creativity.*

Keywords: *Folk music creativity, national heritage, folk songs, national values, the role of music in society, spiritual heritage.*

Аннотация: *В статье рассматривается народная музыка и её значение в жизни общества, роль музыки в формировании национального духа и обеспечении преемственности национальных ценностей. Анализируются жанры народной музыки, их художественно-эстетические особенности, место в народном устном творчестве.*

Ключие слова: *Народное музыкальное творчество, национальное наследие, народные песни, национальные ценности, роль музыки в обществе, духовное наследие.*

Respublikamizning Istiqlolga erishishi munosabati bilan azaliy xalqchil qadriyatlarni tiklash, shu jumladan badiiy-musiqiy merosimizni atroflicha o‘rganish va undan bahramand bo‘lish uchun yetarlicha imkoniyatlar vujudga keldi . O‘zbek musiqa san‘ati jahon sahnalaridan mustaxkam o‘rin ola boshladi. Nufuzli jaxon miqiyosidagi musiqiy anjumanlarda san‘atkorlarimiz o‘z o‘rinlariga ega bo‘la boshladilar. Xalq musiqa ijodiyoti har bir millatning madaniy hayotida o‘ziga xos o‘rin tutadi. Musiqa- inson ruhiyatining eng nozik kechinmalarini ifodalash vositasi bo‘lib, xalqning tarixiy taraqqiyoti, turmush tarzi, urf-odat va an‘analarining yorqin ko‘zgidur. Xalq musiqasi orqali milliy ong,



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



ma’naviyat, estetik did va ma’naviy me’ros avloddan avlodga o’tadi. Shu sababli xalq musiqasi – millatning o’zligini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Shuni ham aytish kerakki, xalq musiqasi ijodiyotining alohida guruh sifatida tasnif etilgan “Muayyan vaziyat va tadbiri – marosim bilan shartlangan aytim – kuylar”- ning xozirgi kundagi hayoti birdek kechmayapti. Xalq musiqasi asrlar davomida xalq og’zaki ijodi asosida shakllangan bo’lib, unda xalqning quvonch va iztiroblari, tarixiy voqealar, ijtimoiy munosabatlar hamda hayotiy tajribalar aks etadi. Xalq qo’shiqlari, dostonlar, laparlar, terma va qo’shiqlar inson hayoti bilan bevosita bog’liq bo’lgan. Milliy musiqasi madaniyatimiz milliy tafakkurni kamol toptirishda asosiy vosita sanalgan. Shirali kuy, shirin ovoz, yaxshi ijro o’z ta’sirchanlik xususiyati bilan inson qalbiga sirli hayajon soladi, uning ruhiyatini tetik qiladi. Musiqasi madaniyati estetik tarbiyaning muhim omili hisoblanadi. Musiqasi tinglaganimizda ayniqsa milliy musiqasi ohanglarini eshitganimizda qalbingizda qandaydir bir milliy g’urur, tarixiy voqealarni shoxidi bo’lgan ota-bobolarimiz ko’z o’ngimizga keladi. Shuning uchun ham musiqasi bilan insonlar ortasidagi muloqot hech qachon eskirmaydi, hamisha yangilanib turadi. Insonga xos eng asosiy ma’naviy ehtiyoj musiqasi tili bilan so’zlashishdir. Xususan, xalq og’zaki musiqasi ijodiyotining eng qadimiy namunalaridan biri bo’lgan mehnat ayimlari inson jismoniy faoliyatining ayrim ko’rinishlari, xususan, yer haydash, ekin ekish qo’l tegirmonda don yanchish, charxda ip yegirish, kabi jarayonlarda ijod etilgani ma’lum. Muayyan mehnatni bir maromda uyushqoqlik bilan bajarishga ko’mak berish qatorida yana inson qalbiga oro bergan rohat bag’ishlagan umidvorlik, ko’tarinkilik kayfiyatini jo qilgan mehnat qo’shiqlari zamonaviy muhit va sharoitlar ta’sirida o’zgarishlarga yuz tutayotganligi ba’zan dastlabki ijtimoiy ahamiyatni yo’qotganligini ham ta’kidlash joiz deb o’yladim

E’tirof etish kerakki bizning davrimizga qadar yetib kelgan musiqiy folklor namunalari ko’proq viloyatlarning qishloq tumanlarida o’zining tabiiy hayotini davom ettirib kelayotgan bo’lsada biroq shahar muhiti turli ijtimoiy guruhlarning ma’naviy talab-ehtiyojlari ta’sirida xilma-xil tus olmoqda. Xususan, bugungi shahar folklorining ajralmas ko’hna qismini “Yor-yor”, “Kelin salom”, “Alla” kabi hozirda ham asl qiyofasini deyarli saqlagan oilaviy marosim qo’shiqlari, shuningdek ohang va so’z “matn”lari ma’lum o’zgarishlarga yuz tutgan “Ramazon” aytimi singari qariyb sanoqli namunalar tashkil etadi. Qolgan ko’pgina marosim va nomarosim aytim-kuylari endilikda tobora “sahna folklori”ga aylanib borayotganligini ko’ramiz. Bu borada ya’ni xalq aytimi va kuylarini tinglovchiga sahna orqali yetqazish borasida ham bir necha ko’rinishlar yuzaga kelganki, ularni quyidagi turlarga bo’lish mumkin:

1. Folklor namunalarini tabiiy asl xoliga mos qayta sadolantirish;
2. Musiqiy folklori “sahna talablari”ga muvofiq qayta ishlov asosida ijro etish;
3. Xalq ayimlari va kuylarini Estrada yo’sinida ijro etish;

Musiqiy folklori Estrada qiyofasiga tobora jadal kirib borish tamoyili jahonning qariyb barcha yirik markaziy shaharlariga xos jarayon bo’lib kelmoqda.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Bizda esa bu jarayon yana yosh Estrada sohasining milliylashuvi bilan ham bog‘liqdir va, ko‘p hollarda aynan shunday badiiy jarayonlar vositasida yosh avlod vakillarining turfa musiqiy folklor bilan “Ilk tanishuvlari” ro‘y bermoqda. Xususan, xalqimizning mavsumiy marosim qo‘shiqlaridan tortib to qo‘shiq, terma, lapar, yalla, ashula singari aytimlarigacha o‘z davrasiga tortayotgan ushbu Estrada yo‘nalishi musiqiy folklorning shahar sharoitida o‘zgacha yashash shakli va targ‘iboti sifatida o‘zgacha yashash shakli va targ‘iboti sifatida baholanishi mumkin. Biroq shu asosda musiqiy didi va tinglov malakasi hosil bo‘lgan yoshlarning aksariyati folklor qiymatini uning asl tabiiy holida namoyon bo‘lishini to‘la idrok eta olmayotganliklarini ta’kidlash kerak. Shahar musiqiy madaniyatining muhim jihatlaridan yana biri bu musiqiy folklor namunalarinig turli ijodiy guruhlar, xususan, folklor-etnografik ansambllari tomonidan “Sahna sharoitida” ijro etilishi bo‘lib qolmoqda. Avvalambor takidlash zarurki, so‘ngi o‘n yillik mobaynida folklor-etnografik ijodiy jamoalarning faoliyati yangi, yuqori bosqichga ko‘tarildi. Zero, Mustaqil O‘zbekistonimizda ilk bor nishonlangan Navruz, shuningdek, Mustaqillik bayramlaridan boshlab folklor-etnografik ansambllarining “katta sahna” maydonlariga chiqishlari an‘ana tusini ola boshladi. Bu o‘rinda Mustaqilligimizning dastlabki yillaridanoq alohida o‘tkazilib kelayotgan folklor jamoalari bilan bir qatorda yakkaxon qo‘shiq, lapar, yalla va ashula ijrochilarining, shuningdek, oilaviy ansambllarining an‘anaviy respublika ko‘rik tanlovlari ham muhim rag‘batlantiruvchi omillardan bo‘lib qolmoqda. Endilikda turli avlod vakillaridan iborat musiqa va raqs dastalarini respublikamizda ko‘plab uchratish mumkin. Jumladan, bugungi kunga kelib folklor-etnografik ansambllarining umumiy soni uch yuzdan ortib ketganligi qayd qilinmoqda. Muhimi, bunday ansambllar o‘z bisotidagi mahalliy mehnat aytimlari, mavsumiy-marosim qo‘shiqlari to‘y marosimi qo‘shiqlari shuningdek, lapar, yalla, hajviy qo‘shiq va ashulalarni sahnaviy ko‘rinishlarda mahorat bilan ijro etib kelmoqda. Xususan, xalq og‘zaki musiqa ijodiyotining eng qadimiy namunalaridan biri bo‘lgan mehnat aytimlari inson jismoniy faoliyatining ayrim ko‘rinishlari, xususan, yer haydash, ekin ekish, qo‘l tegirmonda don yanchish, charxda ip yigirish kabi jarayonlarda ijod etilgani ma‘lum. Muayyan mehnatni bir maromda, uyushqoqlik bilan bajarishga ko‘mak berish qatorida yana inson qalbiga oro bergan, rohat bag‘ishlagan, umidvorlik, ko‘tarinklik kayfiyatini jo qilgan mehnat qo‘shiqlari zamonaviy muhit va sharoitlar ta‘sirida o‘zgarishlarga yuz tutayotganligini, ba‘zan dastlabki ijtimoiy ahamiyatini yo‘qotayotganligini ham ta’kidlash lozim. Shu bilan birga, qo‘shiq, terma, lapar va yallalarimiz butun O‘zbekiston bo‘ylab o‘tkazilayotgan katta bayramlarda, ayniqsa, Mustaqillik, Navruzga bag‘ishlangan tantana va ommaviy sayillarda, taniqli yosh san‘atkoru-havaskorlar ishtrokida berilgan turfa konsert-tomoshalarda ham o‘zining yorqin ifodasini topmoqda.

1991-yildan boshlab O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat Ishlari Vazirligi Xalq Ijodiyoti va Madaniy-ma‘rifiy Ishlar Respublika Markazi tomonidan “Alla” Respublika ko‘rik-tanlovi muntazam o‘tqazila boshladi. Shu asnoda xalqimizning qadimiy marosimi bilan bog‘liq, ayni paytda, muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega aytimlar silsilasining asl





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



bo'g'inlarini qayta tiklash va targ'ib etishga keng yo'l ochildi. Milliy musiqamiz mavqeyini xalq orasida yanada oshirishga ommaviy axborot vositalari ham salmoqli hissa qo'shmoqda. Radio va televideniyaning haftalik ko'rsatuvlari qatoridan joy olgan xalq ijodiyoti bilan bog'liq turli mavzudagi yangi ko'rsatuvlarning paydo bo'lishi ("Baxshilar lapizi", "Dastma-dast", "So'z o'rganish maktabi", "Meros") buning yorqin dalilidir. Musiqa ijodkorligi barcha yo'nalishlarining poydevori hisoblanmish xalq musiqasi erkin va to'laqonli rivoj topgani sari uning shifobaxsh ma'naviy ta'siri ajoyib badiiy yutuqlarida tobora namoyon bo'lmoqda. Xalq musiqasi namunalari hozirda mavjud barcha zamonaviy musiqa ijodkorligi - bastakorlik, kompozitorlik, ommaviy estrada sohalari uchun bebaho manbaa, milliy ijtimoiy ohanglarning "sof buloq"lari bo'lib qoladi. Milliy an'anaviy xalq qo'shiqlarining barkamol avlod tarbiyasida tutgan muhim o'rni, uning manaviyatimizdagi ahamiyati xususida tadqiqot ishlari olib borilgan. Milliy musiqa xalq ijodiyotidan ildiz oladi, uni boyitadi va kelajakka yetkazadi. Har bir kuy va qo'shiq, xalqning qalbidan tug'ilib, uning hayotiy tajribasi, quvonchlari va tashvishlarini ifodalaydi. Xalq musiqasi orqali millatning ruhini, o'ziga xosligini, tarixiy xotirasini xis etish mumkin. Shuning uchun milliy musiqa faqatgina san'at emas, balki xalqning ma'naviy yashash shakli, uning o'zligini anglash vositasidir. Milliy musiqa madaniyatimiz durdonalari odamlarni yaxshilikka, odobga, diyonatga chaqiradi. Qallda milliy g'urur tuyg'usini uyg'otadi, yurakni junbushga keltiradi. Albatta, bunday ta'sirchan kuchga ega bo'lgan tarbiyaviy axamiyati bilan foydasi tegadigan ma'naviy omildan foydalanishimiz, hozirgi kunda zamondoshlarimizni, ayniqsa yoshlarni e'tiborga olib, ushbu san'at vositasi orqali bahra olishimiz zaruriy holat deb tushunmoqlikni taqazo etadi. Tabiatan nozikta'b, san'atsevar va san'at ahliga talabchan o'zbek xalqining musiqa merosi keng ko'lamda ma'naviyat ko'z gusidir.

Xulosa qilib aytganda, xalq qo'shiqchilik ijodiyotidan barkamol avlod tarbiyasida keng foydalanish yo'lida ta'kidlab o'tilgan muammolarni ijobiy xal qilish jamiyatimizning ma'naviy-ma'rifiy poydevorini mustahkamlash yo'lida qo'yilayotgan vazifalarni samaraliroq amalga oshirishda yangi yo'llarni ochadi. Bugun biz ana shu boy merosni asrab uni yosh avlodni qalbiga singdirish orqali millatning kelajagini mustahkamlaymiz. Milliy musiqa xalq ijodiyoti bilan chambarchas bog'liq bo'lib, uni ildizsiz daraxtga qiyoslash mumkin emas. Chunki xalq yaratgan kuy- qo'shiqlar, laparlar, maqomlar, dostonlar milliy musiqaning asosiy manbai sifatida yuzaga keladi. Har bir xalq qo'shig'ida inson qalbining eng nozik tuyg'ulari – sevgi, sog'inch, quvonch va orzu umidlar mujassam bo'ladi. Shuning uchun ham milliy musiqaga quloq solgan odam o'zining tarixiy xotirasi va milliy o'zligini tushunib yetadi. Xalq musiqa ijodiyotida milliy musiqa- bu faqat san'at emas, balki ma'naviyat, tarbiyan va ruhiy boylikdir. U yosh avlod qalbiga milliy g'urur, vatanga muhabbat, mehnatsevarlik va insoniy fazilatlarini singdiradi. Demak milliy musiqa xalq ijodiyoti orqali yaratilgan bebaho boylik bo'lib, u xalqning o'tmishi, bugungi kuni va kelajagini bog'lab turuvchi ko'prikdir. Uni asrab-avaylash qadrlash, va kelajak avlodga yetqazish- har birimizning asosiy burchimizdir. Chunki milliy musiqa millatning o'zligini,





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



tarixini aks ettiruvchi ohang bo'lib, u har birimizning ongimizda mangu qoladigan ohang bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi:
2. Bosh tahririyati Toshkent 2001
3. Mannopov S. "Navobaxsh ohanglar"
4. Mannopov S. "O'zbek xalq musiqa madaniyati" T. Yangi asr avlodi. 2003.
5. R. Tursunov. "Xalq musiqa ijodiyoti va adabiyoti" T. 2002.
6. Mannopov S. O'zbek xalq musiqa madaniyat. T. Yangi asr avlodi. 2004. B-26.

